BOSHLANG‘ICH SINFDA IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING IQTIDORINI ORTTIRISH.

Misirova Nodira Tovbaevna GulDPI katta o‘qituvchisi p.f.f.d (PhD)**,**
e-mail:nodira.mi.8874@gmail.
Xusanova Zebo Xusan qizi Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
e-mail:zebohusanova151@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtidorli yoshlarni tarbiyalash, bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalashi va ular bilan olib boriladigan faoliyati muammolari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni tarbiyalash va rivojlantirishda hisobga olishi zarur bo‘lgan o‘quvchilarning qiziquvchanligi; doimo turli savollarga javob izlashlari; nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi; erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati; masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik; tafakkurning unumdorliligi kabi xususiyatlari masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Muallif tomonidan maqolada iqtidorli o‘quvchilarni tanlash va ularning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning didaktik parametrlarini aniqlash, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida edvayzerlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini mustahkamlash, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning fasilitatsion, antropologik, akmeologik modellarini takomillashtirish lozimligi ta’kidlandi.

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning samarali usullari va afzalliklari keltirilgan. Iqtidorli o‘quvchilarni tabiyalashda «STEAM – ta’lim» texnologiyasi, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashni uch (moslashuvli-yo‘naltiruvchi, tayanch, kreativ-produktiv) bosqichda amalga oshirish lozimligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, boshlang‘ich sinf, ijodiy faoliyat, iqtidor, maktab, iste’dod, qobiliyat, ixtisoslashtirilgan ta’lim, o‘quvchilarda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik, ijtimoiy mas’uliyat, nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi; erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi; yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati; masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik; tafakkurning unumdorliligi, edvayzerlik faoliyati.

ПОВЫШЕНИЕ УСПЕВАЕМОСТИ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ ПОДГОТОВКИ ИХ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы воспитания талантливой молодежи, воспитания будущих школьников и работы с ними. Это также любопытство будущих учителей, которое учащиеся должны учитывать при выявлении, воспитании и развитии одаренных учеников; постоянно ищем ответы на различные вопросы; быстрое развитие речи, мышления, памяти; музыка, рисование, чтение, высокий уровень познавательной активности и учебной деятельности с раннего возраста; целеустремленность и оригинальность в поиске решений проблем; выделяются такие особенности, как продуктивность мышления.

В статье автор определяет дидактические параметры отбора одаренных учащихся и организации их учебной деятельности, разработки социально-педагогических технологий воспитания и развития одаренных учащихся, совершенствования организации консультативной деятельности в общеобразовательных учреждениях, укрепления сотрудничества между государством и общественными организациями, необходимость совершенствования фасилитационной, антропологической, акмеологической моделей воспитания и развития одаренных учащихся.

В статье представлены эффективные методы и пособия по подготовке учащихся начальных классов к творческой деятельности. При натурализации одаренных учащихся на основе технологии «STEAM-образование» индивидуализацию образовательного процесса и творческий подход к подготовке будущих учителей к работе с одаренными учащимися следует проводить в три этапа (адаптивно-ориентированный, базовый , творчески-продуктивное).

Ключевые слова: непрерывное образование, начальный класс, творческая деятельность, учитель, школа, талант, способности, профильное образование, самостоятельность у студентов, творческая инициатива, социальная ответственность, быстрое развитие речи, мышления, памяти; интерес к музыке, рисованию, чтению, математике с раннего возраста; высокий уровень познавательной активности и учебной деятельности; целеустремленность и оригинальность в поиске решений проблем; продуктивность мышления, консультативная деятельность.

IMPROVING STUDENT PERFORMANCE BY PREPARING THEM FOR CREATIVE ACTIVITIES IN PRIMARY SCHOOL.

Annotation. This article discusses the problems of educating talented young people, educating future students and working with them. It is also the curiosity of prospective teachers that students need to take into account in identifying, nurturing and developing gifted students; constantly looking for answers to various questions; rapid development of speech, thinking, memory; music, drawing, reading,

high levels of cognitive activity and learning activities from an early age; purposefulness and originality in finding solutions to problems; features such as the productivity of thinking are highlighted.

In the article the author identifies didactic parameters for the selection of gifted students and the organization of their educational activities, the development of socio-pedagogical technologies for the education and development of gifted students, improving the organization of advisory activities in educational institutions, strengthening cooperation between government and NGOs , the need to improve the facilitation, anthropological, acmeological models of education and development of gifted students.

The article presents effective methods and benefits of preparing primary school students for creative activities. In the naturalization of gifted students on the basis of "STEAM – education" technology, individualization of the educational process and a creative approach to the preparation of future teachers to work with gifted students should be carried out in three stages (adaptive-oriented, basic, creative-productive).

Keyword: continuing education, primary school, creative activity, teacher, school talent, ability, specialized education, independence in students, creative initiative, social responsibility, rapid development of speech, thinking, memory; interest in music, drawing, reading, mathematics from an early age; high level of cognitive activity and learning activities; purposefulness and originality in finding solutions to problems; productivity of thinking, advisory activity.

Kirish. Jahon miqyosida o‘quvchilarning iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va akademik o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirishning o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning iqtidorini tashxis etish va ma’naviy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashning innovatsion modelini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada ta’lim oluvchilarning iste’dod va qobiliyatlarini davlat tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirib borish, ixtisoslashtirilgan maktab va fan sohalarida chuqurlashtirilgan sinflarni tashkil etish, o‘quvchilarning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlash maqsadida maxsus markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish tizimi shakllantirildi. Iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish, bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sport maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish Harakatlar strategiyasining ustivor yo‘nalishi sifatida belgilab berildi. [1]

Pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishi sifatida iqtidorli o‘quvchilarni tanlash va ularning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishning didaktik parametrlarini aniqlash, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida edvayzerlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini mustahkamlash, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning fasilitatsion, antropologik, akmeologik modellarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Davlatimiz rahbari: «Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda», deb alohida qayd etdi. Shu bois, mamlakatimizda «mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash» [2] ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqotning ob’ekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktabi olindi. Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bularning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda «STEAM – ta’lim» texnologiyasi, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste’dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o‘qitish tizimini tashkil qilish, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko‘p tarmoqli ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Prezident va umumta’lim maktablarida «STEAM – ta’lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san’at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etildi. O‘quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o‘rganish darajasini tanlab olish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish ko‘zda tutildi.[3]

Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning samarali usullari o‘qitish masalalarida R. Ibragimov, R. Mavlonova, N. Raxmankulova, R. Safarova, N. Muslimov, M. Inoyatova, M. I. Toshpulatova, U. A. Masharipova kabi taniqli olimlar tadqiqotlar olib bordilar.

Evropa mamlakatlarida F. S. Azevedo, L. Darling-Hammond, A. J. Egalite, B. Kisida, D. S. Yeager, G. M. Walton, P. Cantorand, P. Carter, L. Darling-Hammond, R. D. Taylorand, A. A. West, A. Wigfield, J. Cambria, C. A. Wolters tomonidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihatlari o‘rganilgan.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida – iqtidor tushunchasining quyidagi tavsiflari aniqlashtirildi: iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir; iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar; iqtidor bu – aqliy potentsial, ta’lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi; iqtidor bu – tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslarining o‘ziga xosligi va namoyon bo‘lishi darajalari; iqtidor bu – iste’dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi. Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, ijodiy, ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan maxsus qobiliyatlar majmui aks etadi.

Iqtidorlilik – faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi qobiliyatlarning o‘ziga xos sifatli yig‘indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt; bilish imkoniyatlari va o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatlarning individual tavsifi. Iqtidorli o‘quvchi o‘zining intellekt darajasi, bilish imkoniyatlari, qobiliyati bilan boshqa o‘quvchilardan ajralib turuvchi individual salohiyat egasidir. Intellektual qobiliyat – to‘g‘rilik nuqtai nazaridan aniq vaziyatlarda intellektual faoliyatning muvafaqqiyatini tavsiflovchi intellekt xususiyati hamda vazifalarni hal etish jarayonida axborotlarni qayta ishlash tezligi, g‘oyalarning originalligi va xilma-xilligi, ta’lim olganlikning yuqori sur’ati va chuqurligi, bilish usullarida individuallikning aks etishidir.

Iqtidorli o‘quvchilar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi: qiziquvchanligi; doimo turli savollarga javob izlashlari; nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi; erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi; yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati; masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik; tafakkurning unumdorliligi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda, birinchi navbatda, ularning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish zarur: his-tuyg‘ularga boyligi, madaniyatliligi, intellektining rivojlanganligi, mantiqiy fikrlay olishi, maqsadga intiluvchanligi, bilimga chanqoqligi, kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi, muayyan dunyoqarash va qadriyatli yo‘nalishlarga egaligi, ijtimoiy faolligi, kasbiy takomillashishga intilishi, muloqotga kirishuvchanligi, o‘z-o‘zini tarbiyalash imkoniyatiga egaligi, o‘zining yetuklik darajasini anglashi kabilar.

Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashni uch (moslashuvli-yo‘naltiruvchi, tayanch, kreativ-produktiv) bosqichda amalga oshirish lozim, degan xulosaga kelindi:

Bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning birinchi – moslashuvli-yo‘naltiruvchi bosqichi bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xosliklari bilan tanishtirish bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda bo‘lajak o‘qituvchida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishning muhim komponenti ekanligini anglab yetishga motivatsiyani tarkib toptirish muhim sanaladi. Talabalar pedagogika nazariyasining – “Pedagogik faoliyatga kirish” bilan bog‘liq mavzularini o‘rganish jarayonida – o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari, – o‘qituvchining ijodkorligi,

– pedagogik kreativlik, – pedagogik mahorat, – pedagogik kompetentlik kabi tushunchalar bilan tanishish asosida kasbiy faoliyatga doir dastlabki bilimlarni egallashdi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning ikkinchi – tayanch bosqichi o‘qituvchida faoliyatga ijodiy yo‘nalganlik, kreativ savodxonlik, ijodiy ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘z ifodasini topadi. Mazkur bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga qo‘yiladigan quyidagi talablar o‘zlashtirilishi lozim: o‘quvchining individual o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish; individual ish rejasi asosida mashg’ulotlarni tashkil etish (tyutorlik); kichik guruhlarni shakllantirish va ishini tashkil etish (fasilitatorlik); o‘quvchiga individual yordam ko‘rsatish (mentorlik); liderlik sifatlarini shakllantirish; ijodkorlikka yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish (edvayzerlik); – “erkin ishtirok etish” turidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish; ota-onalar bilan ishlash; o‘quvchilar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va h.k.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchining umumkasbiy va iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirilgan kreativ sifatlarni o‘zlashtirish, diagnostik natijalar asosida o‘zining kasbiy rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash kabilarni o‘zlashtirishda «STEAM – ta’lim» texnologiyasi, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlashni uch (moslashuvli-yo‘naltiruvchi, tayanch, kreativ-produktiv) bosqichda amalga oshirish kabi usullardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu usullar asosida bo‘lajak o‘qituvchida o‘z-o‘zini namoyon etish va o‘z-o‘zini rivojlantirish kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni G‘G‘ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 6-son, 70-modda.

2. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir «Xalq so‘zi» 2017-yil 1-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son Qarori

4. Mardonov Sh. Q., Yarmatov R. B., Parmonov A. A. Talaba shaxsini rivojlantirish. “Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar” jurnali. – Toshkent, 2008.-№1. – B. 34-35.

5. Parmonov A. A., Yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga moslashuvida rahbarning tutgan o‘rni. // “Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-kasbiy barkamol shaxs tarbiyasi”. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. – Guliston: GulDU, 2007. – B. 223.

6. Tolipov O‘. Q., Yarmatov R. B., Uzluksiz ta’limda talaba-tadqiqotchilarni tayyorlash. // “Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi